ELEKTRON TA’LIMNING TA’LIM TIZIMIDA QO’LLANILISHI VA SAMARASI

Rashidova Dildora Mansur qizi

Annotatsiya: Maqolada ta’lim tizimini rivojlantirish, ta’lim-tarbiya jarayonida elektron ta’limning qo’llanilishi va uning samarasi, yuqori sifatli va yuqori pedagogik texnologiya,axborot-kommunikatsiyon texnologiyali muhitda o’qituvchi faoliyatini tashkil etishi va bu faoliyatda elektron ta’limnin o’rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: elektron ta’lim, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiyon texnologiyalar, ta’lim jarayoni, o’qitish.

Elektron ta’lim – bu platformalar yoki raqamli muhitlar orqali bilimlarga kirishni targ’ib qiluvchi ta’lim modeli hisoblanadi. Hozirgi zamon ta’lim tizimida sezilarli o’zarishlar kuzatilmoqda. Xususan ta’lim tizimida elektron ta’limnin kirib kelishi ta’lim jarayoni qatnashilari uchun qator qulayliklar tug’dirmoqda. Elektron ta’lim dastlab talim jarayonida kompyuterdan foydalanish bilan boshlangan va hozirgi kunda kompyuterdan tashqari boshqa vositalar orqali ham tashkil qilinmoqda. Elektron ta’lim elektron darsliklar, ta’lim xizmatlari texnologiyalarini o’z ichiga oladi.

“Elektron ta’lim” sohasiga Janubiy Koreya, Buyuk Biritanya, Daniya va Rossiya kabi davlatlar tajribasida axbarotlashtirishning asosiy maqsadi birinchi navbatda, ta’lim sifatini oshirishga so’ng esa jarayonlarni avtomatlashtirish orqali ta’lim muassasasi xodimlari faoliyatida ko’p takrorlanadigan vazifalar uchun ketadigan vaqtni tejashga qaratilgan. Ta’lim jarayonida elektron ta’lim faqat o’qituvchilar uchun emas, balki talabalar uchun ham qulay va samarali. Ta’lim jarayoni ananaviy tarzda tashkil qilinganda talabalarning o’zlashtirishida biroz qiyinchiliklar kuzatiladi va dars jarayoni zerikarli bo’lishi ham mumkin. Lekin dars jarayonida elektron ta’lim resurslaridan , axbarot-kommunikatsiyon texnologiyalaridan, multimediali va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib tashkil qilinganda kutgan natijaga erisha olamiz. Elektron ta’lim ta’limnin barcha bosqichlari: maktabacha ta’lim, umumiy o’rta va o’rta-maxsus ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keying ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta’lim bosqichlarida bugungi kunda qo’llanilib kelinmoqda. Elektron ta’lim tizimi foydalanuvchiga o’quv materiallari va ulardan olingan bilimlarni test topshiriqlaridan foydalanib, tekshirish imkoniyatini taqdim etadi. Zamonaviy talablarga muvofiq, o’quv jarayoni murakkablashib borayotgan bir vaqtda, ta’limda o’quv vositalaridan foydalanish o’zlashtirishni osonlashtirib, qiziqarlilik jihatini oshirmoqda.

Elektron ta’limning bir qator afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

Afzalliklari:

- Ta’lim jarayonini zerikarli bo’lishini oldini oladi va o’zlashtirishning yuqori bo’lishini ta’minlaydi.
- Xohlaan joyda, xarajatsiz ta’lim olishga imkon beradi.
- Pedagoglarni ijodiy faollikka chorlaydi.
- Taklif qilingan vaqtta o’ranishni va tezkorlikni ta’minlaydi.

Kamchiliklari:

- Yuklangan o’quv materiallarining kamligi bois foydalanuvchilar bilim olishini chegaralaydi.
- Darsdan chalg’ituvchi omillar ko’p.
- AKTni bilishni talab etadi.

Elektron ta’lim vositalaridan foydalanishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish kerak.

1) O’quv materiallariga qo’yiladigan uslubiy talablarni ishlab chiqish.
2) Animatsion dasturlardan foydalanish davomiyligini 25-30minutdan oshirmaslik.
3) Namoyish etilayotgan mavzuga doir tushunchalar ikki tomonlama muhokama etib borilishi .
4) Namoyish etilib borilayotgan lavhalarning talabalar tomonidan mustaqil qayta ishlab, yangi tushunchalarni shakllantirib borishga erishish.

Elektron ta’lim resurslari yordamida darslarni tashkil etish jarayoni, bunda talabalarning olayotgan bilimlarini nafaqat eshitish, balki ko‘rish sezgilari orqali ham qabul qilishlari va tushunchalarning g‘oya va mazmunini chuqur anglab etishlariga samarali yordam beradi.Elektron ta’lim texnologiyasining rivoji elektron o’qitish tizimida ta’lim strategiyasining tuzilishi va har bir o’quvchi uchun o’quv materiallarini yakka tartibda taqdim etish kabi imkoniyatlarni bermoqda. Shunga muvofiq ishlab chiqarishga sarf-xarajatlar, doimiy talablarning o’sishi va elektron ta’lim tizimini amalga oshirishda zaruriy baholash va boshqarish sifatlari shakllandi. Hozirgi avtomatlashtirilgan ta’lim tizimi sifatini baholash uslublari o’qish jarayoni natijalari nuqtai nazaridan, o’qitish tizimlarini baholashga, shuningdek, ushbu uslublar umumiy bo’lib, paydo bo’lgan va elektron ta’lim tizimi hayot siklining turli bosqichlari sifatini boshqarishga yetarli darajada imkon bermaydi.Shu sababli ham elektron ta’lim tizimi sifatini baholash mezonlari va usullari o’qitish jarayoni sifatini boshqarishni amalga oshirishga imkon beruvchi, joriy etish va foydalanish bosqichlarini ishlab chiqish zarur.

Bugungi kunda zamonaviy axbarot-kommunikatsiya texnologiyalarini pedagogik faoliyat hamda kasbiy kompetentlikning ajralmas qismi sifatida shakllantirish ustuvor yo’nalish sifatida qaralmoqda. Shu sababdan pedagoglaning kasbiy ma’lumotlar bazasi va talabalar bilan o’quv muloqotlarini elektron resurslar asosida tashkil etish pedaogik jihatdan muhim vazifalar qatoriga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyqulov.X.J “Pedagogik texnologiya ta’lim samaradorligining asosidir.T.Navro’z 2012.
2. Ishmuhammedov.R.J “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llariT.:TDPU, 2005y
3. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: “Fan” 2007.

WWW.Ziyonet.uz